XALQ DEPUTATLARI QOROVULBOZOR TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 7 - sentabr VI-86-120-2-38-K/23 Qorovulbozor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan tumandagi 7 ta mahallaning chegaralari aniq belgilangan hududdagi ko‘chalarni toifalar (ko‘cha, shoh ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha)ga ajratish va nomsiz ko‘chalarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 2012-yil 16-oktabrdagi 295-sonli qarori talablaridan kelib chiqib hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rayosati majlisinining 117-sonli bayoni qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar rejasi asosida tumandagi 7 ta mahallaning chegaralari aniq belgilangan hududdagi ko‘chalarni toifalarga (ko‘cha, shoh ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha) ajratish yuzasidan davlat kadastrlari palatasi Buxoro viloyati boshqarmasi Qorovulbozor tumani filiali tomonidan aniqlangan nomsiz ko‘chalarga nom berish bo‘yicha takliflarni Geografik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Buxoro viloyati komissiyasi hamda geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2023-yil 14-martdagi xulosasini ko‘rib chiqib va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y, 41-son, 448-moddasi, 2011 y, 303-son, 10-moddasi)ga asoslanib, xalq deputatlari Qorovulbozor tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi

takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2023-yil 14-martdagi 1500530-sonli geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi xulosasi ma’qullansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Buxoro viloyati boshqarmasi Qorovulbozor tumani filiali tomonidan aniqlangan nomsiz ko‘chalarga ilovaga muvofiq nomlansin.

3. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (R.Mirzayev), tuman statistika bo‘limi (F.Jumayev), Kadastrlar palatasi Qorovulbozor tumani filiali (R.Boqiyev)ga tegishli davlat ro‘yxatidan o‘tkazish idoralari bilan birgalikda mazkur qarordan kelib chiqib hisobotlarga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritish topshirilsin.

4. Xalq deputatlari Qorovulbozor tuman Kengashining 2023 yil 30 avgustdagi VI-86-109-2-38-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin va tegishli tartibda jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilganligi inobatga olinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (D.Tursunova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Ostonov**

Xalq deputatlari Qorovulbozor tuman
Kengashining
2023-yil 7-sentabrdagi
VI-86-120-2-38-K/23-son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko‘cha	“Tinchlik” MFY	Nomsiz	Nurli hayot	**Nurli hayot** – geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilgan, qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Ko‘cha	“Tinchlik” MFY	Nomsiz	Sayqal	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Ko‘cha	“Tinchlik” MFY	Nomsiz	Yangi saroy	**Yangisaroy** – “Geografik obyektlari nomlarining o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida, Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Ko‘cha	“Bo‘zachi” MFY	Nomsiz	Yuksalish	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Tor ko‘cha	“Bo‘zachi” MFY	Nomsiz	Yuksalish-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	Tor ko‘cha	“Bo‘zachi” MFY	Nomsiz	Yuksalish-2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	Ko‘cha	“Bo‘zachi” MFY	Nomsiz	Baraka	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	Ko‘cha	“Bo‘zachi” MFY	Nomsiz	Yangibog‘	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9.	Ko‘cha	“Bo‘zachi” MFY	Nomsiz	Ulug‘vor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10.	Ko‘cha	Imom Buxoriy MFY	Nomsiz	Yangiyo‘l	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11.	Ko‘cha	Imom Buxoriy MFY	Nomsiz	Fayzobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12.	Ko‘cha	“Cho‘lquvar” MFY	Nomsiz	Baxtobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13.	Ko‘cha	“Cho‘lquvar” MFY	Nomsiz	Binokor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14.	Ko‘cha	“Bo‘ston” MFY	Nomsiz	Charog‘on	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15.	Ko‘cha	“Navbahor” MFY	Nomsiz	Chavandoz	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16.	Ko‘cha	“Jarqoq” MFY	Nomsiz	Mingchinor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq